

GAZLI VA ENERGETIK ICHIMLIKLARNING TISHGA TA'SIRI

Rustamov Mirjalol Rahimjon

o'g'li

Tibbiyot fanlar nomzodi

Sharapova G.A

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola gazli va energetiki ichimliklarning tishga zara yetkazishi va qanday oqibatlariga olib kelishi haqida yoritilgan. Darslik ketma – ketligi tishning qattiq to'qimalarga qanday zarar olib kelish va salbiy tasvirlar haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация

В этой научной статье рассматривается вредное влияние газированных и энергетических напитков на зубы и возможные последствия. В учебнике приведена последовательность материала, показывающая, как эти напитки влияют на твердые ткани зубов, а также представлены изображения их негативного воздействия.

Abstract

This scientific article discusses the harmful effects of carbonated and energy drinks on teeth and the potential consequences. The textbook sequence provides information on how these beverages affect the hard tissues of teeth and presents illustrations of their negative impact.

Dolzarbligi

Hozirgi zamonaviy davriga kelib , gazli va energetiki ichimliklar kabi turli xil mahsulotlar soni keng ko‘lamda ortib bormoqda , va natijada hosil bolgan kasalliklar ham og‘iz va tish qattiq to‘qimalarga jiddiy oqibatlar ham olib kelmoqda. Xususan mamlakatimiz va butun dunyoda, Coca Cola kabi boshqa ko‘plab gazli ichimliklar va tarkibida shakar va kofein miqdori yuqori bo‘lgan energetik ichimliklar aholi orasida mashhur va bozori oldi mahsulotlarga aylangani hammamiz yaqol ayon .

Kirish qismi

Natijada, aholi iste‘mol qilayotgan ichimliklar tarkibidagi shakar, uglevodlar va kofein umir davomida og‘iz shilliq qavati va tish qattiq to‘qimalarga asta sekin zarar berib , og‘izda turli bakteriyalar bilan reaksiyaga kirishadi va shu sababli karies va tish kasalliklarga yo‘l ochadi. Tish qattiq to‘qimalar yemirilishiga olib keladi.

Asosiy qismi

Gazli ichimliklarni tishga ta‘sir.

Hozirda o‘rta odiy gazli ichimliklarni tarkibda , shakar , uglevod , rang beruvchi moddalar, limon kislotasi va kofein mavjud, ularning o‘rtacha 100 ml da : Shakar – 10,9g , uglevod – 10 g , limon kislotasi – $0.1 \approx 0.3$ % ni tashkil qiladi. Bu sanab o‘tilgan moddalar og‘iz bo‘shlig‘ida parchalanadi va natijada turli xil tishga zara olib keladigan bakteriyalar bilan reaksiyaga kirishadi, o‘z navbatida karies, gingivitis va periodontitis kabi kasalliklar tishda rivojlanadi.

Tishda kasallikning rivojlanishini.

Gazli ichimliklar iste‘moli aksini olgandan tez tishga zara yetkazmaydi, lekin bu hursanda bolish kerak degani emas , sababi kasalliklar tishda ketma ket rivojlandi .

Boshida tish usti qorayish yoki sargʻish rangga kira boshlaydi va bu asorat tishda kasallikning birinchi bosqichi hisoblanadi. Keyingi bosqichi esa tishning usti yani emal qavati zararlanishiga olib keladi aynan shu qismi tishda zararni avj olishga olib keladi , va tepada sanab oʻtilgan kasallik rivojlanishiga olib keladi, misol tariqasida karies.

Kislota.

Gazli ichimliklarda sanab oʻtilgan barcha mahsulotlar, ogʻiz boʻshligʻida yemirilishi , oʻz navbatida reaksiyaga kirishishib kislota hosil boʻladi, aynan kislota tishning eng ashaddiy zara yetkazuvchi modda hisoblanadi .

Energetik ichimlikning tishga taʼsiri.

Boshqa ichimliklarga qaraganda energetik ichimlik tish uchun eng zararli mahsulot sirasiga kiradi, shu sababli har bir energetik ichimliklarda shakar va kofein miqdori juda yuqori boʻladi, bu moddalar tish emal toʻqimasini oʻrab olib tishni yemirlashga va sezgirligini ortishga olib keladi.

Tish yemirilishi.

Tish yemirilishi – bu tish kasallikning bir turi lekin oqibati ayanchli hisoblanadi, bu odamga sezilarli kuchli ogʻriq beradi , natijasida tish sezgirligi ortadi va tish har qanday istemol qilmoqchi bolgan mahsulot istemol qilganda ogʻriq va noqulaylik his qiladi . Tish yemirilishi dastlab emal va keyinchalik dentin qavatiga oʻtadi, shu oʻlaroq kasali va nuqsonlarga va tish estetikasi buzilishga olib keladi.

Gazli va energetiki ichimliklarning tishga zara yetkazishi ketma ketligi.

Dastlab tishning usti qavati kislota natijasida sari yoki bazi qismlari qorayishga olib keladi , bazi hollarda reaksiya natijasida tish toʻgʻrisida toʻgʻri yemiriladi va Dental erosion – emal yemirilishi, Kariyes – bakteriya va shakar kombinatsiyasi

Milk kasalliklari – gingivitis, periodontitis

Tish sezgirligi – sovuq/issiq ta'sirga sezgirlik ortadi.

Umumiy qilib aytganda bitta kasallik o'z o'rnida yanna bitta kasallikni chaqiradi , song natija esa tish butunlay nobut bolishga olib keladi.

Xulosa

Gazli va energetiki ichimliklarning aholi orasida keng tarqalishi aholi orasida tish kasalliklarning ham keng tarqalishiga olib keladi, shu tufayli biz iste'mol qilayotgan mahsulotlar tarkibga qarab iste'mol qilishni va to'g'ri tanlov qilish kerak ekanligini tushunib yetish lozim. Har bir tabassumdan, har bir tishning hissasi katta . Sog'lom tish uchun to'g'ri ovqatlanish va zararli ichimliklarda vos kechishimiz muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kim: Lussi, A. Va Carvalho, T.

Kitob / maqola: Acidic Beverages and Foods Associated with Dental Erosion, Monographs in Oral Science, Vol. 26.

O'zbekcha: Kislotali ichimliklar va oziq-ovqatlar sabab tish eroziyasi

2. Kim: Ten Cate, J. M.

Kitob: Oral Histology: Development, Structure, and Function, 8th edition.

O'zbekcha: Og'iz gistologiyasi: rivojlanishi, tuzilishi va funksiyasi

3. Kim: Al-Majed, I. Va boshqalar

Maqola: Influence of Energy Drinks on Enamel Erosion: In Vitro Study, BMC Oral Health, 21: 345.

O'zbekcha: Energetik ichimliklarning tish emaliga ta'siri: laboratoriya tadqiqoti